

RESEARCH ARTICLE

Distinctive Features Of Lacunar Eponyms In A Comparative Study Of Persian, Uzbek, And English

Nargiza Rasuljanovna Ismatullayeva

Associate Professor, PhD Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan

Hulkar Mirzabek qizi Murotova

Master's Student, Comparative Linguistics, Linguistic Translation Studies Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 150-152

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This study is devoted to the analysis of the linguistic and linguocultural features of lacunar eponyms in a comparative perspective of the Persian, Uzbek, and English languages. The research examines the phenomenon of lacunarity in the linguistic representation of emotional states and sensory experiences in close connection with national and cultural cognition, value systems, and emotional conceptualization. Based on a comparative analysis of eponyms in Persian, Uzbek, and English, cases lacking full semantic equivalents are identified and interpreted as semantic gaps. The findings demonstrate that lacunar eponyms in each language are characterized by distinct emotional, cognitive, and cultural motivations, and emphasize the importance of contextual and pragmatic strategies in achieving adequate representation of these units in translation.

KEY WORDS

Lacunar eponyms, Emotional lexicon, Comparative linguistics, Linguocultural analysis, Semantic gaps, Emotional conceptualization, Translation methods.

INTRODUCTION

Har bir til insonning ichki dunyosini o'ziga xos tarzda tasvirlaydi. Hissiyotlarni ifodalovchi so'zlar ham shunchaki leksik birlik emas, ular xalqning ruhiyati, madaniy tajribasi va tarixiy qarashlarining mazmuniy yig'indisidir. Shu sababli ikki tilning emotsional maydonini solishtirish nafaqat lingvistik, balki kognitiv va madaniy tadqiqotdir.

Lakuna bu lotin tilida "bo'shliq" degan ma'noni anglatib, tilshunoslikka termin sifatida XX asrning ikkinchi yarmida fransuz tilidan kirib kelganligi aniqlandi. Lakuna biron bir xalqning konseptlar majmuida tushuncha sifatida mavjud bo'lsa-da, lekin o'z ifodasini leksik shaklda topmagan

holatlarda voqelanadi. Lakuna ikki til qiyosida kuzatilib, bir tildagi bir muayyan bir so'z ikkinchi tilda erkin so'z birikmasi shaklida o'z aksini topadi [1].

Affektiv kechinmalarni ham, emotsional holatlarni ham til vositasida ifodalash uchun (hislar va emotsiyalarning o'zidan farqli ravishda) "emonim" termini qo'llanilgan [2, 8]. Mazkur termin emotsional tajribaning bevosita psixik hodisa sifatidagi ko'rinishini emas, balki uning lingvistik ifodasini, ya'ni emotsiya va his-tuyg'ularni nomlash va verbalizatsiya qilishga xizmat qiluvchi birliklarni anglatadi.

Emonimlarning lakunarligi borasida S.Yu.Perfilyevaning

ta'kidlashicha, nafaqat "emotsiya" tushunchasining umumiy rod kategoriyasi aniqlanmagan, shuningdek, ushbu hodisaning parametrik xususiyatlari ham noaniqdir, ya'ni ularning barqarorligi yoki o'zgaruvchanligi, tug'ma yoki orttirilganligi, ijobiy yoki salbiyligi, kognitiv xususiyati va tafakkurga ta'siri, perseptivligi va idrok jarayonlariga ta'siri va hokazo [3, 158].

O.F. Zadobrivskayaning simpathy (hamdardlik) emonimlar doirasidagi tadqiqotlarida, uning turli areallardagi sig'imi haqida so'z ketadi. Bunda u quyidagilarni tahlilga tortadi: "Eng ko'p hollarda hamdardlikning konteyner (sig'im) modeli Amerika arealida (ingliz tilining Amerika va Kanada variantlarida) qo'llanadi, Yevropa arealida (Britaniya va Irlandiya ingliz tili variantlarida) hamda Osiyo arealida (Hind ingliz tili variantida) nisbatan kamroq darajada uchraydi. Osiyo arealining boshqa variantlarida (Singapur, Gonkong, Shri-Lanka, Bangladesh, Pokiston, Malayziya va Filippin ingliz tili variantlarida), Karib arealida (Yamayka variantida), shuningdek Afrika arealining ayrim qismlarida (Gana, Keniya va Janubiy Afrika variantlarida) ingliz tilining "Res Continens" kriptoklassiga mansub tasniflovchi konstruksiyalarda sympathy (hamdardlik) leksemasining qo'llanishi faqat yakka holatlar sifatida qayd etilgan. Ya'ni, mazkur mamlakatlarning ingliz tilida so'zlashuvchi muhitida hamdardlikni konteyner sifatida konseptualashtirishga oid bilimlar kommunikativ jihatdan kamroq ahamiyatga ega" [4, 113]. Ma'lumotlar ingliz tilining turli areallarida hamdardlikning konteyner modeli bir xil darajada faol emasligini, ya'ni hamdardlik emonimlarida lakunarlik mavjudligini ko'rsatadi.

Fors tilidagi ko'plab hissiy birliklar o'ziga xos metaforik tuzilishga ega. Masalan, دل آشوب (del-âshub) nafaqat bezovtalik, balki "yurakni titratadigan" ruhiy iztirobni ifodalaydi. Ingliz tilidagi inner turmoil esa ayni shu titroqning poetik rangini bera olmaydi. Xuddi shunday, دلتنگی (deltangi) oddiy sog'inch emas, balki qalbda to'plangan siqqlik, kimnidir yoki nimanidir ichdan sog'inish holatini bildiradi. Inglizcha longing mazmunan mos kelsa-da, unda forscha "qalb torayishi" degan metafora yo'q.

قهر (qahr) so'zi o'zida ranjish, gina, jim protest va ichki og'riqning murakkab uyg'unligini jamlaydi. Ingliz tilida bu holatni "anger", "resentment" yoki "silent protest" bilan bera olamiz, lekin uchalasining birlashgan ko'rinishi mavjud emas. بغض (boqz) esa "ko'z yosh bo'g'zda turib qolgan", yig'lashga yaqin, ichki to'lqinlanish holatini anglatadi –ingliz tilida bunday aniq birlik yo'q, faqat tasviriy ifoda bilan beriladi: a lump in

one's throat.

Fors tilida keng qo'llanadigan مَرَوَّت (marowwat) esa insoniylik, saxiylik, oliyjanoblik va odobning uyg'un konsepti bo'lib, uni ingliz tilida "chivalry", "kindness" yoki "nobility" bilan qisman ifodalash mumkin, ammo asl mazmun to'liq ochilmaydi. Shuningdek, آبرو (âberu) – shaxs sha'ni, obro'si va ijtimoiy hurmati tushunchalarini mujassamlashtiradi. Inglizcha "honor" buni qisman beradi, lekin sharqona ijtimoiy bosim, jamiyat ko'zi oldida o'zini tutish kabi madaniy qatlam yo'q.

Ingliz tilidagi emotsional birliklar esa ko'pincha zamonaviy psixologiya bilan bog'liq bo'lib, aniq vaziyaviy holatlarni ifodalaydi. Masalan, frustration muammoga duch kelganda yuzaga keladigan ichki keskinlik bo'lib, fors tilida uni دلخوری (delkhorī) yoki ناکامی (nakâmi) orqali qisman ifodalash mumkin, ammo sabab – emotsiya bog'liqligi to'liq berilmaydi. Anxiety ingliz tili madaniyatida hissiy va jismoniy stress aralashmasi sifatida talqin qilinadi, fors tilidagi اضطراب (ezterâb) esa ko'proq tibbiy tashxishga yaqin. Yana bir misol awkwardness. Ingliz tilida bu ijtimoiy noqulaylikning yumshoq, vaziyatga moslashuvchan talqiniga ega. Fors tilida esa uni معذب بودن (mo'azzab budan) yoki ناجور بودن (nâjor budan) kabi iboralar bilan beradi, ammo ingliz tilidagi nozik ijtimoiy tafsilotlar ko'proq yo'qoladi. Vulnerability ham ingliz tilida hissiy ochiqlik va ruhiy himoyasizlikni anglatadi. Forscha آسیب‌پذیری (âsibpaziri) esa ko'proq jismoniy yoki ijtimoiy kontekstga moyil.

Shuningdek, ingliz tilidagi overwhelmed – haddan ziyod vazifalar, hissiyotlar yoki fikrlar ostida bosimni his qilish holati. Fors tilida bu ko'pincha iboraviy tarzda درهم شکستن (darham shekastan) bilan ifodalanadi. Homesick – uydan uzoqda bo'lib uyga bo'lgan sog'inch va azobni bildiradi; fors tilida esa bu دلتنگ خانه شدن (deltang-e khane shodan) kabi obrazli ibora orqali beriladi.

Ushbu misollar ko'rsatadiki, fors tili hissiyotlarni ko'proq yurak, ruh, ko'z kabi metaforik markazlar orqali talqin qiladi. Ingliz tili esa hissiyotlarni psixologik kategoriyalar sifatida tasniflaydi. Demak, lakunarlik faqat leksik yetishmovchilik emas –bu madaniyatlararo tafovutning tabiiy oqibatidir.

Tarjima jarayonida bunday lakunalarini to'ldirish tarjimonning eng murakkab vazifalaridan biridir. Bitta so'zni literal tarjima qilish deyarli har doim hissiy rangni yo'qotadi. Shuning uchun tarjimon ko'pincha deskriptiv izoh, kontekstual vosita yoki ma'no kompensatsiyasiga murojaat qiladi. Asl matnning

emotsional semantikasi to'liq yetkazilishi uchun ba'zan bitta so'z o'rniga butun ibora yoki badiiy tasvir talab qilinadi. Chunki tarjima madaniyatlar o'rtasida jarayon, u so'zlar emas, balki ma'nolar migratsiyasidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, fors va ingliz tillaridagi emotsional leksika o'rtasidagi tafovutlar lakunarlik hodisasining tabiiy, chuqur va ko'p qirrali ekanini namoyish etadi. Har bir til hissiyotlarni o'z tarixiy-madaniy dunyoqarashi asosida nomlaydi va bu nomlanishlar tarjimada o'ziga xos ilmiy yondashuvni talab qiladi. Lakunarlikni o'rganish tarjimashunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, matnning mazmunini, ohangini va hissiy to'liqligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Tilning emotsional manzaralarini qiyoslash esa inson ruhiyatining madaniy rang-barangligini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

REFERENCES

- [1] – Rasuljanovna, I. N. (2019). Lacunas Occurance In Semantic Fields Of Chinese And Uzbek Languages. International Journal of Scientific & Technology Research, 8(11), 1998-2001.
- [2] – Дони́на О.В. Скрытая категоризация эмоций в вариантах языка. Автореф. дисс... канд. филол. н. – Воронеж, 2017. – 24 с.
- [3] – Перфильева С.Ю. Лакунизированность эмонимов в языковом сознании. // Лакуны в языке и речи: Сборник научных трудов. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 157-163.
- [4] – Задобри́вская О. Ф. Актуализация контейнера: эмонимы sympathy и симпатия в англо-и русскоязычном пространствах // Языковая картина мира в зеркале перевода: Сборник научных трудов. – Воронеж, 2019. – С. 110-118.
- [5] – Ismatullaeva, N. R. (2020). Methods of elimination of lexical gaps in translation (on example of Chinese and Uzbek languages). Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 305-314.
- [6] – Khudoyorovich, K. K., Rasuljanovna, I. N., Khalmuratovna, R. Z., & Eshkobilovna, K. D. (2020). The Issues of Word Choice in Fiction Translation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(04).